



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON SHAHAR KENGASHI QARORI

2023 - yil 7 - dekabr

VI-84-115-7-106-K/23

Kattaqo'rg'on shahar hokimligi

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on shahar Kengashining 2023-yilda 2-yarim yillikda “Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi”da shakllangan mablag'larni jamoatchilik fikri asosida yo'naltirish to'g'risidagi 2023-yil 6-oktabrdagi VI-81-97-7-106-K-/23-sonli qaroriga o'zgartirish to'g'risida.

Tashabbusli byudjetning 2023-yil 2 mavsumida g'olib deb topilgan “Kattasoy” ko'chasini ichimlik va oqova suv bilan ta'minlash uchun 1 320 000 (bir milliard uch yuzi yigirma million) so'm bilan g'olib deb topilgan.

O'zbekiston Respublikasi Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi Samarqand viloyat boshqarmasining 2023-yil 14- noyabrdagi 01/02-1781-sonli xatiga asosan tekshirilgan suv namunalari KI ko'rsatkichi bo'yicha SAN PIN 0211-06 talablariga javob bermasligi ma'lum bo'ldi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2023-yil 18-oktabrdagi rad etilganligi to'g'risidagi xabarnomasida uy sharoitida iste'mol uchun yer osti suvlarining sifat ko'rsatkichlari bo'yicha quduq burg'ilash maqsadga muvofiq emasligi ko'rsatib o'tilgan.

Tegishli tashkilotlarning xulosalariga asosan ichimlik suvi yaroqsiz deb topilishi munosabati bilan yuqoridagi ko'rsatilgan mablag'ni oqova suvi bilan bog'liq xarajatlarga yo'naltirish maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati

to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari shahar Kengashining oltinchi chaqiriq, sakson to‘rtinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on shahar Kengashining 2023-yilda 2-yarim yillikda “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da shakllangan mablag‘larni jamoatchilik fikri asosida yo‘naltirish to‘g‘risidagi 2023-yil 6-oktyabrdagi VI-81-97-7-106-K-/23-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

2. Kattaqo‘rg‘on shahar bo‘yicha 2023-yil 2-mavsum jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo‘yicha “MANZILLI RO‘YXAT” ilovaga muvofiq jamoatchilik fikri asosida yo‘naltirilsin.

3. Tegishli tashkilotlarning xulosalariga asosan ichimlik suvi yaroqsiz deb topilishi munosabati bilan yuqoridagi ko‘rsatilgan mablag‘ni oqova suvi bilan bog‘liq xarajatlarga yo‘naltirilishiga ruxsat berilsin.

4. Shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi v.v.b (O.Kadirov), g‘aznachilik bo‘linmasi (A.Abalbaev)lar ushbu mablag‘larni belgilangan tartibda moliyalashtirilishini ta‘minlasin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Eshpulatov) va shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (M.Toshpo‘latov) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



N.Xakimov

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on shahar Kengashining
2023-yil 7-dekabrda
VI-84-115-7-106-K/23-son qaroriga
1-ilova

Kattaqo'rg'on shahar bo'yicha 2023-yil 2-mavsum jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha

“MANZILLI RO‘YXAT”

№	G'olib taklif ma'lumotlari					Amalga oshirish-ning dastlabki aniqlangan qiymati	Xaqiqatda ajratilgan*	Moliyalashtirish manbasi (FTJ, qo'shimcha manba, budget parametri)	Buyurtmachi tashkilot	Loyihani amalga oshirish uchun talab etiladigan xujjatlar	Amalga oshirish tartib-taomili turi
	Taklif ID raqami	MFY	Balansda saqlovchi	Qisqacha mazmuni	To'plagan ovozlari soni						
“Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi”da shakllangan mablag'					12 023	4 740 000	4 740 000	x	x	x	x
1	03167186008	Nurobod	Obodonlashtirish boshqarmasi	Nurobod MFYga qarashli Shodlik ko'chasini 1000 m masofali ichki yo'llarini asfaltlashtirish	2008	800 000	800 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	"Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi" DUK	Loyiha-smeta xujjatlari	Eng yaxshi taklifni tanlash
2	031297248008	Zarifobod	Tibbiyot birlashmasi	Tibbiyot birlashmasi Poliklinikalarini raqamli tizimga o'tayotgani uchun 50 dona kompyuter olish	1986	350 000	350 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tibbiyot birlashmasi	Xarid qilinadigan tovarlar reyestri	Eng yaxshi taklifni tanlash
3	031290658008	Nurobod	Hokimiyat	Kattasoy ko'chasidagi aholini oqava suv bilan ta'minlash. Ushbu masalani yechishda artezan qudug'ini qazish va katta hovuz qurish yoki hududning 2 km yaqinida joylashgan mahalliy tilda "Cho'chqaxona" deb ataladigan eski kongra suv nasosini o'rnatib ko'chaga suv olib kelish va hovuz qurish talab etiladi.	1858	1 320 000	1 320 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Samarqand viloyat hokimligi huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" DUK	Loyiha-smeta xujjatlari	Eng yaxshi taklifni tanlash
4	031280477008	O'rikzor	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	Kattaqo'rg'on shahridagi 11-sonli umumta'lim maktabining yordamchi binosini ta'mirlash	1553	170 000	170 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Samarqand viloyat hokimligi huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" DUK	Loyiha-smeta xujjatlari	Eng yaxshi taklifni tanlash
5	031279810008	Chinobod	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	Kattaqo'rg'on shahar 20-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosi sinf xonalari eshik, deraza romlari va pol usti linoleum qatlamini almashtirish	1113	500 000	500 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Samarqand viloyat hokimligi huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" DUK	Loyiha-smeta xujjatlari	Eng yaxshi taklifni tanlash

6	031269924008	Zomin	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	Kattaqo'rg'on shahar 8-maktabda Bolalarni sog'lom ovqatlanishi uchun oshxona hamda yoshlarning estetik madaniyatini rivojlantirish maqsadida faollar zali qurish.	1091	750 000	750 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Samarqand viloyat hokimligi huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" DUK	Loyiha-smeta xujjatlari	Eng yaxshi taklifni tanlash
7	031272299008	Do'stlik	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	Kattaqo'rg'on shahar 16-ixtisoslashtirilgan Davlat umumta'lim maktabi binosi issiqlik tizimini yangilash	1031	350 000	350 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Samarqand viloyat hokimligi huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" DUK	Loyiha-smeta xujjatlari	Eng yaxshi taklifni tanlash
8	03169300008	Abdullo Qaxxor	Hokimyat	A. Qaxxor ko'chasining ko'p qavatli uylarning oldida yoshlar va qariyalar, umuman olganda barcha uchun sog'lomlashtirish maydonchasi qurish	814	260 000	260 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Samarqand viloyat hokimligi huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" DUK	Loyiha-smeta xujjatlari	Eng yaxshi taklifni tanlash
9	031276489008	Abdullo Qaxxor	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	Kattaqo'rg'on shahar Ingichka shaharchasi 15-sonli umumta'lim maktabi qo'shimcha binosining issiqlik tizimini yangilash joriy ta'mirlash	569	240 000	240 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Samarqand viloyat hokimligi huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" DUK	Loyiha-smeta xujjatlari	Eng yaxshi taklifni tanlash

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on
shahar Kengashining
2023-yil 7-dekabrdagi
VI-84-115-7-106-K/23-son qaroriga
2-ilova

Kattaqo'rg'on shahar bo'yicha 2023 yil 2-yarim yillikda o'tkazilgan tashabbusli byudjet jarayoni yakunlariga ko'ra g'olib bo'lgan loyihalarni amalga oshirish bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar

T/R	Tashabbusning ID raqami	Tovar nomi	Soni	Bozor narxi	So'mmasi
1		Monoblok	50 dona	7 000	350 000
Loyihaning amalga oshirish jami qiymati				7 000	350 000